

**ZAMONAVIY O’ZBEK QISSALARIDA OT OBRAZINING RAMZIY-MAJOZIY TALQINI  
(TOG‘AY MURODNING «OT KISHNAGAN OQSHOM»QISSASI ASOSIDA)**

**Abduqodirova Lobar Shavkatovna**

*Alfraganus universiteti o’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi II bosqich magistranti*

*e-mail: lj.com@mail.ru ORCID: 0009-0008-2928-8550*

*telefon: +998-99-808-19-55*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada qissa janrining paydo bo’lishi, o’zbek qissachiligining shakllanishiga ta’sir ko’rsatgan ijtimoiy va madaniy omillar, zamonaviy o’zbek qissalarining mohiyati hamda qissa markazidagi qahramonlarning ramziy va majoziy talqinlari xususida so’z yuritiladi. Shuningdek, maqolada Tog‘ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» qissasidagi Tarlon obrazining ramziy-majoziy talqini alohida o’rganiladi. Maqola asosan, qissa janrining adabiyotdagi o’rni va uning obrazlaridagi chuqur mazmunlarni tahlil qilishga qaratilgan.*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются источники жанра повести, факторы, способствующие развитию узбекской повести, существование современных узбекских повестей и символико-метафорическое толкование образов героев. Также в статье анализируется символико-метафорическое толкование образа Тарлона в повести Тогая Мурода «От кишинаган оқшом». Статья посвящена исследованию роли жанра повести в литературе и глубоких смысловых значений, заложенных в образах героев.

**Annotation:** *This article explores the emergence of the short story genre, the socio-cultural factors influencing the development of Uzbek short story writing, the essence of contemporary Uzbek short stories, and the symbolic-metaphorical interpretation of the characters within these works. The article also specifically delves into the symbolic-metaphorical interpretation of the character Tarlon in Togay Murod’s short story «Ot kishnagan oqshom». The study focuses on the role of the short story genre in literature and the in-depth meanings embedded in the portrayal of its characters.*

**Kalit so‘zlar:** *qissa janri, obraz poetikasi, ramziy talqin, majoziy talqin, ot obrazi, Tarlon, Xon o’glon, Qashqa, Guliston.*

**Ключевые слова:** *жанр повести, поэтика образа, символическое толкование, метафорическое толкование, образ лошади, Тарлан, Хан угон, Кашика, Гулистан.*

**Keywords:** *short story genre, poetics of the image, symbolic interpretation, metaphorical interpretation, image of the horse, Tarlon, Khan Oglon, Qashqa, Gulistan.*

**KIRISH**

Adabiyot — inson ruhining nozik pardalarini ohangdor so‘zlar bilan titratadigan sehrli olam. Bu olamda har bir janr o’zining betakror ohangi, o’ziga xos ifoda vositalari bilan

yashaydi. Qissa esa qalbni tiriltirib, ko’zga yosh, yuzga tabassum keltira oladigan, o‘quvchini oddiy insonlar taqdiri orqali hayot haqiqatlari bilan yuzlashtiradigan badiiy janrdir.

Qissa — roman kabi keng qamrovli emas, hikoya kabi qisqa ham emas. U hayotdan olingen bir bo‘lak, ammo shu bo‘lakda jamiyatning og‘riqlari, inson qalbining iztiroblari va orzularining to‘lqinlari mujassam. Qissada muallif ko‘pincha bir voqelik, bir qahramon taqdiri orqali butun bir davr ruhi, xalq ruhiyati, ijtimoiy-axloqiy muammolarni badiiy aks ettiradi.

Adabiyotshunos Uzoq Jo‘raqulov Shodiqul Hamroning «Qora kun» qissasi haqidagi bir tadqiqotida o‘zbek qissachiligi tarixida mazkur janrning uch shakli borligini qayd etib, bu haqda shunday fikr bildiradi: «Dastlabki shakli xalq qissachiligi bo‘lib, ularga ma’lum-u mashhur voqealarni bayon etish, ya’ni usuli bayon yetakchilik qilgan. Sho‘ro davriga kelib qissachilik o‘z funksiyasini tubdan o‘zgartirdi. Ma’lum sabablarga ko‘ra ularda targ‘ib va tashviq usuli bosh planga chiqdi. Qissachiligidizning uchinchi ko‘rinishi XX asrning 80–90-yillarida shakllandiki, bularni shartli ravishda yangi qissalar deb atash mumkin». Olimning fikrlarini e’tirof etgan holda aytish mumkinki, o‘zbek qissalari uslubining bu tarzda shakllanishida to‘rt asosiy omil muhim ahamiyat kasb etgan. Bular: a) folklor tarkibida shakllangan qissalar; b) yozma mumtoz qissachilik; v) sho‘ro qissachiligi (ruspovesti); g) jahon realistik va modern qissalaridir.

XX asrning 60-yillaridan boshlab o‘zbek qissachiligida jahon realistik adabiyoti ta’siri kuchaydi. Yozuvchilar Stendal, Balzak, Flober, Xeminguey kabi realizm namoyandalari hamda Folkner, Joys, Markes, Kamyu, Kafka, Prust kabi modernistlardan ilhom ola boshlashdi. Bu jarayon, ayniqsa, 1980-yillarda yaqqolroq ko‘rindi. Natijada, o‘zbek qissasi folklor, Sharq adabiyoti, sho‘ro davri va jahon realizmi hamda modernizmi an’analarini o‘zida uyg‘unlashtirgan ko‘p qatlamlı janrga aylandi. Zamonaviy o‘zbek qissachiligidida uslubga bo‘lgan yondashuv yangicha tus oldi — realizmning haqiqatparastlik ruhiyati, naturalizmning tafsilotlarga urg‘u beruvchi kuzatuvchanligi va modernizmning ichki olamga sho‘ng‘uvchi badiiy talqini bir butun tarzda qo‘shilib, o‘ziga xos, noodatiy ifoda shakllarini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, Tog‘ay Murod, Normurod Norqobil, Shukur Xolmirzayev, G‘ofur Shermuhammad, Jumanazar Beknazar asarlaridagi tabiat va inson o‘rtasidagi munosabat va bog‘liqlikning yoritilishi diqqatga sazovor. Keltirilgan yozarlarning asarlarida aks etgan, ramziylik kasb etgan va hattoki bosh qahramonga aylangan tulporlar, ya’ni Ot obrazi tadqiqotimizning asosiy mavzusi hisoblanadi. Bevosita e’tiborimizni qissalardagi qahramonlar – otlarga qaratamiz.

## MUNOZARA

Ot obrazining o‘zbek badiiy tafakkuridagi o‘rni qadimdan muhim bo‘lib, u faqatgina hayvon sifatida emas, balki timsollik, sadoqat, matonat va ozodlikning badiiy ramzi sifatida qaralgan. Ayniqsa, zamonaviy qissalarda ot obrazi real syujet voqealaridan ko‘ra ramziy-majoziy qatlama kuchli estetik yuklama bilan namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida qissa janri bu yuksak missiyani o‘z zimmasiga olgan. U oramizdagagi oddiy insonlarni bosh qahramonga aylantirib, ularning ichki dunyosini

ramzlar, timsollar, xotiralar va badiiy detallarning ohangida olib beradi. Ayniqsa, so’nggi yillarda yaratilgan qissalarda ramziy-majoziy ifoda vositalari, timsollar — jumladan, ot obrazining poetik va ramziy talqinlari alohida o’rin egallay boshladi. Chunki ot — bizning tariximiz, eposimiz, qalbimiz va orzularimizda yashab kelayotgan hayotiy timsoldir. Ot obrazi o’zbek xalq og’zaki ijodida — dostonlar, rivoyatlar va ertaklarda doimiy yo’ldosh, sodiq do’st va hatto muqaddas mavjudot sifatida talqin qilingan. Shu tasavvurlar zamonaviy qissachilikda yangi badiiy mazmun kasb etadi: xalq ruhiyati, tarixiy xotira va milliy o’zlik ramzi sifatida qayta ishlanadi. Ot — kuch, iroda, sadoqat va erkinlik ramzi. Qissalarda bu obraz ko’pincha qahramonning ichki olami, ruhiy holati bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi. Masalan, otning qamchilanishi yoki yaralanishi insonning jamiyatdagi siqilgan holatiga, hayotdagi izardiroblariga ishora qiladi. Aksincha, yovvoyi yoki jilovsiz otlar inson ruhining ozodligi, g‘ururi va mustaqilligini aks ettiradi.

Tog‘ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» qissasida ot timsoli xalq va zamin o’rtasidagi uzviy bog‘liqlik, mehnat va ruhiyat birligi ramzi sifatida ifodalanadi. Bu asarlarda ot faqat voqeа qatnashchisi emas, balki g‘oya va ma’no tashuvchi hamdir. Bir qator o’zbek nasrining buyuk vakillari ijodida ot obrazining tasviri o’ziga xos ahamiyatga ega. Ular otni faqat hayvon sifatida emas, balki inson obraziga teng darajada, ba’zan undan ham yuqori fazilatlar bilan tavsiflaydilar. Bu asarlarda ot obrazining simbolik va metaforik ma’nolari muhim o’rin tutadi. Odadta, ot tasviri qahramonlarning xarakterini yanada yorqinroq ifodalash, ularning ichki dunyosini olib berish va davrning ijtimoiy hayotidagi o’zgarishlarni tushuntirish uchun ishlataladi.

Yozuvchilarning asarlarida ot faqat tashqi tasvir sifatida emas, balki badiiy obraz sifatida ham rol o’ynaydi. Shunday qilib, ot obrazini ko’rsatish orqali mualliflar nafaqat qahramonning individual xususiyatlarini, balki jamiyatdagi muhim o’zgarishlar va ijtimoiy munosabatlarni ham yoritishga harakat qiladilar. Bu tasvirlar, shuningdek, asarlarning ma’naviy-axloqiy mazmunini chuqurlashtirishga yordam beradi.

## TAHLIL

Tog‘ay Murodning har bir qissasida millatning o’tmishi va yuz yillik fojialari aniq va to’liq aks ettiriladi. Uning asarlarida madaniyatlar o’rtasidagi to’qnashuvlar, zulmning barcha yuzlari va xo’rlangan ruhlar tasvirlanadi. Biroq bu ruhlar o’zida milliy madaniyatning necha asrlik qadriyatlarini saqlab, qaytadan jonlanadi va millatga qaytariladi. Har bir qaytarilgan ruh, o’ziga xos tarzda, o’quvchiga ta’sir qilib «yuqadi» – uning qalbini egallaydi.

«Ot kishnagan oqshom»da, yurt, erk, ozodlik, o’zlik va millat tushunchalari so’zlar yordamida emas, balki madaniyatning tabiiy oqimida, ming yillar davomida shakllangan tuyg‘ular tarzida namoyon bo’ladi. Asar shu tarzda o’quvchi qalbiga chuqur ta’sir o’tkazadi. Hatto qishloqning oddiy va ta’limdan yiroq kishisi ham ulkan yurakni va milliy ruhni ichidan his etadi va uni o’zida aks ettiradi.

Qissasini o’qiganimizda Surxon vodiysining o’ziga xos ruhini, uning beg‘ubor va samimi tabiatini his qilamiz, tanti odamlari bilan birga yashagandek bo’lamiz. Ularning oddiy hayoti, o’zining tabiiy va kamtarona turmushi bilan o’quvchining qalbida chuqur

mehr uyg’otadi. Bu insonlarning hayoti qanday oddiy bo’lmashin, uning ma’nosini va go’zalligi kitobxonga juda yaqin va e’tiborli bo’ladi.

Qissa «Alpomish» dostoni bilan bog’liq bo’lgan xalqchil ruh bilan boyitilgan. Ayniqsa, tush ko’rish hodisalari doston syujetlarini eslatadi. «Birodarlar, siz so’ramang, men aytmayin... Oti Momosuluv emish» jumlalari bilan boshlanuvchi qismi aynan tush ko’rish motivi – ishora qilish mazmuni bilan boyitilgan, ya’ni Momosuluv bilan turmush qurishi tushida ayon beradi. Ayniqsa, do’mbira jo’rligida doston aytishlari bu fikrimizni yanada to’ldiradi.

Qissaning bosh qahramoni Ziyodulla – oddiy bir cho’pon. Uning Tarlon nomli otiga bo’lgan munosabati, insonning tabiatga bo’lgan tabiiy va sof sevgisi kabi, samimiy va to’g’ri ifodalangan. Tarlon – erk va ozodlik istayotgan xalq timsolida gavdalanadi. Shu bilan birga, tabiat va insonning bir-biriga bo’lgan muhabbatining badiiy tasviri sifatida muhim o’rin tutadi.

Ziyodullaning qahramon sifatida shakllanishi, uning atrofidagi ikkiyuzlamachi va riyokor odamlarga qarshi kurashi orqali ko’rinadi. U o’zidagi jismoniy nuqsonga, ya’ni «kal» degan malomatga qarshi isyon ko’targan holda, ma’naviy ustunlikni, oti Tarlon bilan o’zining mohir chavandozlik san’ati orqali yengadi. Ya’ni uni Ziyodulla kaldan Ziyodulla chavandozga aylanishida Tarlonning o’rni benazir. Ziyodulla, aynan shu tarzda, oddiy qishloq odamining haqiqiy obrazini yaratadi, uning kurashi esa sodda va kamtarona odamning ichki kuchi va asliyatini namoyon etadi.

Qissada voqealar go’yoki Tarlon atrofida birlashgandek. Tarlonning tarifi Ziyodulla chavondoz tarafidan quyidagicha beriladi: «Birodarlar, bo’z ot qanday bo’ladi? Surpday oppoq bo’ladi. Bordi-yu, ajdodida bo’lsa, to’qqizga to’lganda tarlon bo’ladi. To’qqiz yoshida bo’zning badanida xolday-xolday qora donalar paydo bo’ladi. Shundan boshlab u bo’z emas, tarlon bo’ladi. Tarlon – xol-xol ot! Tarlon – otlar sarasi!»

Otga berilgan tarifni qarang, xuddi farzandini suyib-erkalayotgan, ulg’ayishini ko’rib yuragi dadillangan otadek zavq-shavqqa to’lish, har bir qadamini, har bir harakatini mamnuniyat va faxr bilan kuzatishda otning inson hayotidagi o’rni, unga bo’lgan birodarlik, og’alik tuyg’ulari ifodalanganadi. Otni farzanddek suyib, unga bo’lgan qiziqish va g’amxo’rlik samimiy tarzda yoritilgan. Aslida-chi? Tarlon nima degani? O’zbek tilining izohli lug’atida «tarlon» so’zi birinchi navbatda lochin yoki qarchig’ayga o’xshash qush ma’nosida keltirilgan. Ikkinci ma’nosini esa ola-targ’il tusdagi chavkar ot ni ifodalaydi. Shunday qilib, «tarlon» so’zida ham sifat, ham ko’rinish mazmuni birgalikda anglashiladi. Bu yerda lochindek uchqur, ola-targ’il rangli ot obrazining ma’nosini ko’zda tutilgan. Ola-targ’il tusdagi chavkar ot nafaqat tashqi ko’rinishi bilan, balki uchqurligi, qudrati, jismoniy imkoniyati yuqoriligi bilan ham boshqa otlardan ajralib turadi.

«Birodarlar to’riq otning yuzdan biri yaxshi bo’ladi, tarlon otning yuzdan biri yomon bo’ladi! Birodarlar, ot tanimasang, tarlon ol! Bizning bo’z to’qqizga to’ldi, to’qqizda bo’ldi. Shunda... shunda, bir orzuyim, o’n orzu bo’lib bolaladi. Bir quvonchim o’n quvonch bo’ldi! Birodarlar, bo’z otim – tarlon bo’ldi! Men tarlon otli bo’ldim!»

Bu qissani tom ma’noda ippologiya – otlar haqidagi fanga qiyoslash mumkin. Chunki qissa davomida otning toychoqligidan to chavkarga aylangunigacha bo‘lgan o‘zgarishlar mukammal tarzda tasvirlangan. Bu jarayon otning jismoniy va ruhiy holatidagi, shuningdek, uning ijtimoiy hayotdagi roli va vazifalaridagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Otning gavda tuzilishi va uning fe’l-atvori bu o‘zgarishlarning markazida turadi. Boshidan toychoq bo‘lgan, hali to‘liq shakllanmagan ot vaqt o‘tishi bilan kuchli va jismonan sog‘lom, dono va tajribali chavkarga aylanadi, bu esa uning o‘zining asosiy vazifalarini bajarishdagi qobiliyatini yanada mustahkamlaydi.

Gapimizning isboti sifatida quyidagi parchani keltiramiz: «Birodarlar, ot olsang, ho‘kiz qorindan ol, ho‘kiz olsang, ot qorindan ol! Orqa kezanagi bolaning bilagiday bo‘lib turadigan ot yaxshi keladi. Shundayini izladim». Bu jumlada kezanak so‘ziga e’tibor qaratamiz. Surxon kaloritini yaqqol namoyon etgan bu so‘z hattoki O‘zbek tilining imlo lug‘atiga ham kiritilmagan. Kontekstdan ham mazmun topish mushkul. Otning sifatini tariflashga xizmat qilayotgan bu so‘zning ma’nosni nima, qaysi a’zosiga nisbatan ishlataliyapti?

Kezanak – ot, qo‘y, qoramolning to‘piqdan yuqori, pochasining ingichka qismi. Bu so‘z so‘zlashuv uslubida kam qo‘llanilsa-da, soha vakillari – chorvador hamda cho‘ponlar leksikonidagi faol so‘zlardan hisoblanadi. Buni baddiy asarda qo‘llash shevaga xos so‘zlarni o‘qirmanlarga yetkazish, lug‘at boyligini oshirishga xizmat qilgan.

Otlarning fe’l-atvori – ularning ruhiy holati va xarakteri, shuningdek, inson bilan o‘zaro munosabati qissada katta ahamiyatga ega. Yozuvchi otlarning tabiiy instinktlari, xarakterli xususiyatlari va ularning odamlar bilan bo‘lgan muomalasini samimiy tarzda aks ettiradi. Ular o‘z egalarining buyruqlariga bo‘ysunib, jismoniy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshiradi, shuningdek, insonning mehnatiga va mehriga javoban, o‘zlar ham ko‘rsatgan e’tibor va g‘amxo‘rlikni anglab, harakatlarida yanada aniqlik va ehtiyojkorlikni ko‘rsatadilar.

Qissada otlarning sinovlardan o‘tishi san’at darajasida yoritilgan. Har bir ot o‘z imkoniyatlarini sinovlardan o‘tkazadi, ularning ishlashga bo‘lgan qobiliyati va chidamliligi haqidagi ma’lumotlar, badiiy tasvir yordamida o‘quvchiga yetkaziladi. Bu jarayon, shuningdek, otlarning o‘ziga bo‘lgan ishonch va tezlikni, jismoniy chidamlilik va go‘zallikni ta’riflashda ham ishtirok etadi.

Otlarni qo‘lga o‘rgatish va tarbiyalash san’ati haqida ham keng ma’lumotlar beriladi. «...sara ot chahvandoz aql-zakovatidan bino bo‘ladi! Sara ot chavandoz qalb qo‘ridan bino bo‘ladi! Shu bois bo‘zni tarbiyalay berdim, kecha-yu Kunduz tarbiyaladim. Zo‘r berib tarbiyaladim. Qanday qilib tarbiyaladim? Aytmayman, birovlar bilib qoladi, aytmayman...».

Odatda, yozuvchi otlarning hayoti va ularga nisbatan insonning tutgan o‘rni haqida chuqur tahlillarni o‘tkazadi. Bu tarbiya jarayoni nafaqat otning faoliyatini yuksaltirish, balki ularning ruhiy holatiga, muomala va ijtimoiy turmushdagi ahamiyatiga ham ta’sir qiladi. Otlar, shuningdek, o‘z harakatlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy normalarni va milliy ot

o‘yinlarini o‘zida aks ettiradi. Bu o‘yinlar milliy qadriyatlar, tarbiya va g‘urur ramzi sifatida har bir otning o‘z vazifasini bajarishi uchun mukammal ko‘rsatmalar beradi.

Milliy ot o‘yinlaridan – ko‘pkari asarda muhim o‘rin tutadi. Bu o‘yinlar faqatgina madaniyatni aks ettiribgina qolmay, balki ot timsoli ortida xalq dardini, alamini, o‘kinchlarini-da yoritdi. Ushbu o‘yinlar orqali otlarning jasorati va boshqaruvdagi imkoniyatlari sinovdan o‘tkazilsa, buning negizida taloto‘plarga taslim bo‘lmagan el-u elatning metin irodasi yashiringan.

«Birodarlar, mashina deganlar temir! Joni yo,,q! Joni yo,,q temir odamga el bo,,lmaydi! Temirning yuragi yo,,q-da! Ot odamga el bo‘ladi! Boisi, otning joni bor, yuragi bor-da!»

Tarlon nafaqat ot, balki momo yerning ramzi sifatida ham talqin qilinadi., Tarlon – do‘stlik, sadoqat va haqiqat tushunchalarini jamlagan obraz. Ziyodulla chavandoz va Tarlon qarshisidagi vaziyat qanchalik og‘ir, ziddiyatga to‘la bo‘lmasin, ikkisida o‘z prinsiplari va ishonchidan aslo qaytmaydi. Ular har qanday qiyinchilikka qarshi kurashib, o‘ziga xos shaxsiyatini saqlab qoladi. Buning natijasida, Tarlon ham og‘ir damlarda, egasini xuddi insondek, ba’zan hatto ba’zi insonlardan ham ustun bo‘lgan fazilatlari bilan himoya qilib, uni qutqaradi.

«Ayo Tarlon, sen mening birodarimsan, birodarim!»

### XULOSA

Tog‘ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» qissasida ot – ozodlik va orzu timsoli. Ot kishnashi — qahramon qalbidagi norozilik, g‘urur va ozodlikka intilish ramzi sifatida tasvirlanadi. Qahramonning hayotdagi cheklardan bezib, kishnayotgan ot tovushi orqali ichki noroziligi tasvirlanadi. Ot bu yerda real jonzot emas, balki ozodlik timsoliga aylangan. Qahramon va Tarlon o‘rtasidagi rishta — sodiqlik va birgalikda yengilmaslik timsoli, ammo zamonaviy qissalarda bu rishta ko‘pincha yo‘qolgan yoki iztirobga aylangan holda tasvirlanadi. Bu orqali yozuvchilar zamonaviy odamning yolg‘izligi, qadriyatlar evrilishini ifodalaydi.

Bundan tashqari, Tarlon obrazi majoziylik orqali ruhiy holat ifodasini ham yoritgan. Ot obrazi ba’zan bevosita ishtirok etmasdan, qahramon xotiralari, tushlari yoki istaklari orqali tilga olinadi. Bu esa obrazni majoziylashtirib, uni ruhiy-psixologik holat ifodasiga aylantiradi. Bir mahallar «elning ermagi» bo‘lgan Ziyodullani elning erkagiga aylantirgan Tarlon obrazi qissada Ziyodulla bilan teng planga qo‘yilgan. Ko‘pkaridan haqini ayira bilgan ot boshqalarga ham bo‘s sh kelmasligini anglatgan. Xulosa qilib aytganda, Ziyodulla qadrdoni, birodari – Tarlon bilan bir butunlikni tashkil qilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahmonov V. O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
2. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12-jild. – Toshkent, 2000–2006.

3. O’zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2023.
4. Musayeva F. O’zbek xalq so‘zlari. –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023.
5. Tilavov Abdumurod. Ot obrazi: tarix, tahlil va talqin. Monografiya. – Toshkent: «Sano-standart», 2021.
6. Ochilova Nilufar. Ingilizzabon g‘arb va o‘zbek nasrida ot obrazi talqini, f.f.bo‘yicha f.d (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2022.
7. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent: «Nurafshon kitob ta’minot», 2022.
8. Xoldorov D. Hozirgi adabiy jarayon: o‘zbek qissalari uslubi. Uslubiy qo‘llanma. – T.: Nodirabegim nashriyoti, 2019.
9. Жўракулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.

Foydalilanilgan internet saytlari

- <https://uz.dailyhoroscopeastros.com/horse-symbolism-meaning>
- <http://agreenhorse.blogspot.com>
- <https://researchgate.net>
- <https://binicilikokulu.com/atlar-hakkinda-bilgiler>